

UO‘K: 632.4: 632.3: 632.934.1

**SURXONDARYO VILOYATI SHIMOLIY MINTAQALARDA TOKDA
ANTRAKNOZ KASALLIGINING TARQALISHI**

Xodjamqulova Sitora Sulaymanovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti q.x.f.f.d, PhD

Maxmatrasulova Gulzoda Abdumurot qizi

maxmatrasulovag@gmail.com

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistri

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida antraknoz kasalligining tarqalishi, uning hududlar bo'yicha rivojlanishi va zarari haqida ilmiy-tadqiqot natijalari aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. antraknoz, nav, kasallik, rivojlanish, tarqalish, namlik, harorat

Аннотация. В статье представлены результаты научных исследований о распространении антракноза в условиях Сурхандарьинской области, его развитии и вредоносности в различных районах региона.

Ключевые слова: антракноз, сорт, заболевание, развитие, распространение, влажность, температура

Abstract. This article presents the results of scientific research on the spread of anthracnose disease in the conditions of Surkhandaryo Region, its development across different areas, and its detrimental effects.

Keywords: anthracnose, variety, disease, development, distribution, humidity, temperature

Kirish. Tokning antraknoz kasalligi AQShda birinchi marta 1800-yillarning o'rtalarida aniqlangan. Ehtimol, kasallik bu mamlakatga Yevropadan olib kelingan uzum o'simlik moddasi orqali kiritilgan. Kasallik Amerika uzumzorlarida tez tarqaldi va AQShning yomg'irli, nam va issiq hududlarida uzumning muhim kasalligiga aylandi [5; 1-3-b]. Antraknoz kasalligi barcha tok yetishtiriladigan hududlarda keng tarqalgan bo'lib, MDH hududida O'rta Osiyo va Kavkaz orti respublikalari, Qozog'iston va Qora dengiz sohillari mintaqalarida juda zararli hisoblanadi.

Antraknoz kasalligini qo'zg'atuvchi *Elsinoe ampelina* Shear zamburug'ining taksanomiyasi quyidagicha: Fungi dunyosi; *Ascomycota* filumi; *Pezizomycotina* kenja

filumi; *Dothideomycetes* sinfi; *Dothideomycetidae* kenja sinfi; *Myriangiales* tartibi; *Elsinoaceae* oilasi; *Elsinoe* turkumi.

Tadqiqot natijalari. Kuzatuvlarimiz natijalariga ko‘ra, Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi tokzorlarda kasallik indeksi 5,1-13,4 % ni tashkil etdi. “Qumsoy” fermer xo‘jaligiga qarashli tokzoridagi tokning “Kitob surxaki” navida antraknozning eng ko‘p tarqalishi va kuchli rivojlanishi aniqlandi. Jumladan, kuzatilgan 50 ta o‘simlikdan 24 tasida ya’ni 48,0 % da antraknoz belgilari aniqlandi. Bunda o‘simlikning zararlanish darajasi bo‘yicha 6 ta o‘simlikda 4 ball, 4 ta o‘simlikda 3 ballni tashkil etdi, bu esa kasallikning kuchli (24,5 %) rivojlanganligini anglatadi.

I-jadval


Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi fermer xo‘jaliklari tokzorlarida antraknoz kasalligining tarqalishi va rivojlanishi (2023 yil)

№	Xo‘jalik nomi	Uzum navi	O‘rganilgan o‘simliklarning umumiy soni, dona	Zararlanish darajasi bo‘yicha o‘simliklar (barglar) soni, dona					Kt, %	Kr, %	Ki, %
				Ballar							
				0	1	2	3	4			
1	Soxibkor f/x	Oq xusayni	50	27	7	6	5	5	46,0	27,0	12,4
		Pushti toyfi	50	33	7	4	3	3	34,0	27,3	9,3
2	Muqimov O‘roz f/x	Kitob surxaki	50	28	8	6	4	4	44,0	24,0	10,6
		Oq xusayni	50	32	7	5	3	3	36,0	19,0	6,8
		Qora kishmish	50	35	5	4	3	3	30,0	17,0	5,1
3	Qumsoy f/x	Kitob surxaki	50	26	10	5	4	6	50,0	28,0	14,0
		Oq xusayni	50	33	5	4	4	4	34,0	20,5	7,0

		Qora kishmish	50	33	6	3	5	3	34,0	19,5	6,6
4	Suvli soy f/x	Oq xusayni	50	31	5	4	5	5	38,0	24,0	9,1

Mazkur xo‘jalikdagi tokning “Pushti toyfi” va “Qora kishmish” navlarida esa kasallikning deyarli bir xil (34,0 %) tarqalishi va 19,5-20,5 % gacha rivojlanishi kuzatildi. Bu tokzorlarda kuzatilgan 50 ta o‘simlikdan 3-4 tasi 4 ballgacha zararlanganligi kuzatildi.

“Soxibkor” fermer xo‘jaligiga qarashdi tokzorlarida ekilgan tokning “Oq xusayni” navida o‘rganilganda, kasallik indeksi 12,4 % ni tashkil etdi. Kuzatilgan 50 ta o‘simlikdan 23 tasi (46 %) antraknoz bilan zararlanganligi ma’lum bo‘ldi hamda kasallikning rivojlanishini hisoblaganimizda, 5 ta o‘simlik 3 ball va yana 5 tasi 4 ballgacha zararlanganligiga guvoh bo‘ldik. Ushbu xo‘jalikdagi “Pushti toyfi” navida esa antraknozning biroz kamroq tarqalishi va rivojlanishi kuzatildi. Jumladan, tekshirilgan 50 ta o‘simlikdan 17 tasi (34,0 %) da antraknoz aniqlandi. Ulardan 7 tasi 1 ball, 4 tasi 2 ball, 3 tasi 3 ball hamda 3 tasi 4 ballgacha zararlanganligi ma’lum bo‘ldi. Kasallik indeksi esa 9,3 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Surxondaryo viloyati sharoitida tokning antraknoz kasalligini monitoring qilish jarayoni.

Xulosalar. 2023 yilgi kuzatuvlarimiz natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, viloyat bo‘yicha antraknozning umumiy 16,0-66,0 % gacha tarqalib, uning 12,0-41,0 % gacha rivojlanishi aniqlandi. Ushbu vegetatsiya yilida antraknozning barcha tokzorlarda 2022 yildagiga nisbatan ko‘proq tarqalishi hamda kuchli rivojlanishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дементьева М.И. Фитопатология. –М: Агропромиздат, 1985. -397с.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.–Москва. “Агропромиздат”. 1985. – С. 351.

3. Евдокимова Е. А. Микозы виноградной лозы в Краснодарском крае: дис. – Санкт-Петербург: дис.... канд. биол. наук, 2009. 141 с.
4. Пересыпкин, В.Ф. Сельскохозяйственная фитопатология / В.Ф. Пересыпкин - 4-е изд., перераб и доп. - М.: Агропромиздат, 1989. - С.424 - 429.
5. Ellis M. A., Erincik O. Anthracnose of grape //Agriculture and Natural Resources. – 2008. – P. 1-3.